

ALISHER NAVOIYTNING HARFIY SAN'ATLAR YARATISH MAHORATI
("ALIF" HARFI MISOLIDA)

Mahmudova Diana Yanik qizi

Xiva shahridagi Ogahiy nomidagi ijod maktabi ona tili fani o'qituvchisi.

mahmudovadiana842@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodi insoniyat madaniyatida muhim o'rin egallaydi. Uning asarlari badiiy san'atlar, ramzlar va ma'nolar bilan boyitilgan bo'lib, arab alifbosidagi harflar tasvirlari orqali sevgi va go'zallikni aks ettiradi. Shoirning g'azallarida kitobat va istixroj san'atlari ustalarcha qo'llanilgan bo'lib, har bir so'z chuqur ma'noga ega. Navoiy, ayniqsa, badiiy tasvirlar orqali inson his-tuyg'ularining murakkabligini va ideal hayot haqidagi mulohazalarni ochib beradi. Bu maqolada Navoiyning ijodida she'riy san'atlarining ahamiyati tahlil qilinadi, shuningdek, uning badiiy va falsafiy go'zallikni birlashtirish qobiliyatini namoyon etiladi.*

Kalit so'zlar: *badiiy g'oyalar, she'riy san'atlar, kitobat, istixroj, tanosub, tazod, arab harflari, na'l va alif.*

Annotation: *Alisher Navoiy's work is considered a significant contribution to human culture. His writings are enriched with artistic expressions, symbols, and meanings that reflect themes of love and beauty, often illustrated through the imagery of Arabic letters. In his ghazals, Navoiy skillfully employs literary techniques such as kitabah and istixroj, with each word carrying deep significance. He adeptly reveals the complexity of human emotions and reflections on the ideal life through his artistic portrayals. This article analyzes the importance of tanosub and tazod techniques in Navoiy's work, highlighting his unique ability to blend aesthetic and philosophical beauty.*

Key words: *artistic ideas, poetic arts, calligraphy (or script), extraction, proportionality, contrast, arabic letters, the letter "na'l", the letter "alif".*

Alisher Navoiy ijodi adabiy g'oyalar va insoniy haqiqatlarning bitmas-tuganmas manbayi hisoblanadi. Uning asarlari cheksiz ohang va ma'nolar bilan boyitilgan timsollar olamini yaratdi. Bu olam shunchalik keng va serqirradi, shoirning diqqat-e'tiboridan chetda qolgan biror narsani topish amrimahol: gul va bulbul, xazon yaprog'i, shudring tomchisi, sarv daraxti, ranglar va raqamlar, afsona qahramonlari, payg'ambarlar mo'jizasi, yulduzlar va sayyoralar... Bularning barchasi shoir ijodida obraz va detalga aylanib, komil inson haqidagi tasavvurlarni mujassamlashtirishga xizmat qiladi.

Arab alifbosidagi harflar Navoiy ijodida alohida ahamiyatga ega. Harfiy san'atlar orqali badiiy obraz yaratish usullari Navoiydan avval ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, buyuk shoir ijodida yangi mazmun va shakllarga ega bo'lgan. Navoiy bunday tasvirlarni shunchaki yoki tasodifiy holda yaratmaydi, aksincha, ular shoir ijodida muntazam va turli o'rinlarda qayta-qayta uchraydi, ammo har gal yangi ma'no va shaklda namoyon bo'ladi.

Sharq mumtoz adabiyotida shakl va mazmun uyg'unligiga asoslangan ko'plab badiiy san'atlar mavjud bo'lib, ular orasida kitobat san'ati alohida o'rinni egallaydi. Bu san'atning asosiy mohiyati – arab yozuvi harflarining grafik shaklidan ramziy va timsolli tasvir vositasi

sifatida foydalanishga borib taqaladi. Arab alifbosi o'zining xilma-xil grafik ko'rinishlari - to'g'ri va egri, yoysimon va doirasimon shakllari bilan badiiy ifodaning serqirra imkoniyatlarini yaratadi.

Kitobat san'ati adabiyotda estetik obrazni yaratish vositasi bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, Sharq she'riyatida ushbu san'at orqali muayyan harflarning tashqi shakliga o'xshash holat va vaziyatlar poetik obrazlar bilan uyg'unlashtirilgan. Bu orqali shoirlar o'zlarining ma'naviy kechinmalari, muhabbat tuyg'ulari, jamiyatga nisbatan munosabatlari va falsafiy qarashlarini noan'anaviy uslubda ifodalash imkoniga ega bo'lganlar.

Ilk bosqichlarda bu san'at XIV asr oxiri va XV asr boshlariga oid adabiy manbalarda ko'zga tashlanadi. Ustoz shoirlar ushbu uslubni nafaqat poetik mahorat mezoni, balki badiiy mushohada shakli sifatida ham namoyon qilganlar. Kitobat san'atida harflar faqat yozuv elementi emas, balki estetik va ramziy birlik sifatida badiiy tafakkurga xizmat qiladi.

Umuman olganda, kitobat san'ati mumtoz adabiyotimizda san'atkorona mushohada, falsafiy mulohaza va estetik tasavvurni ifodalovchi muhim badiiy hodisa sifatida e'tirof etiladi. U badiiy tafakkurning keng imkoniyatlarini ochib beruvchi noyob san'at turlaridan biridir. Ayniqsa, ushbu san'at timsoliy tafakkur, ramziy ko'rish va grafik idrok elementlarini o'zida mujassam etgani bois, uni mumtoz adabiyotimizda badiiy tasvir vositasi sifatida o'rganish muhim ilmiy-ijodiy vazifalardan hisoblanadi.

Misol sifatida, bu san'atning naqadar mohirona qo'llanganini Alisher Navoiy ijodida kuzatishimiz mumkin. Shoir baytlarida harflar shakli orqali obrazlar yaratish, timsollar vositasida ma'noni chuqurlashtirish va ruhiy holatlarni ta'sirchan yetkazish kabi badiiy uslublar yorqin namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy ijodining nozik ramzlar va chuqur falsafiy ma'nolar bilan yo'g'rilgan namunalaridan biri bo'lgan quyidagi misra, ishq va muhabbatning ichki mohiyatini badiiy san'at bilan yuksak darajada ifodalaydi:

Hajridin jonim arosig'a agar xud¹ kirmadi,
Nega shakli jon aro kirgan alif andomidur²³.

Baytda shoir sadoqatli oshiqning iztirobli holatini tasvirlar ekan, hajr - ya'ni yor jismonan uzoqda bo'lsa-da, uning ruhi, surati oshiqning jonida yashayotganini badiiy tarzda ifoda etadi. Shoir hajr tufayli jon aro yor kirmaganini ta'kidlagandek tuyuladi, ammo zudlik bilan bunday savol qo'yadi: "Unda nega mening jonim ichida, ya'ni جان so'zining o'rtasida, alifdek siymong zohir bo'lgan?"

Bu savol nafaqat poetik, balki ramziy bir ruhiy haqiqatni anglatadi: "Alif" - yorning qomati timsoli, ishqning boshlanishi, ilohiy mavjudlik ramzi. Arab alifbosida "jon" (جان) so'zining markazida alif harfi mavjud bo'lib, shoir ana shu yozuv shakliga ishora qiladi. Bu yerda "alif" faqat bir harf emas - u muhabbat, ma'shuqaning borligi, oshiq qalbida yashayotgan visol orzusi, beqaror dard timsoli hamdir.

Shoir bu yerda kitobat san'atidan badiiy tasvir vositasi sifatida foydalanadi va bu orqali inson qalbidagi muhabbat qanday qilib har bir harfda, har bir satrda yashiringanini ko'rsatadi. Yor jismonan yo'q bo'lsa ham, uning alifdek qomati oshiqning "jon"ida - yozuvda ham,

¹ O'zi, o'zginasi(bu yerda o'zi kirmadi degan ma'noda).

² Badan, bo'y, gavda, jism.

³ Алишер Навоий. Гаройиб ус-сиғар. Хазойин ул-маоний. 1 ж.- Тошкент: TAMADDUN, 2011. - Б. 185.

yurakda ham – yashaydi. Demak, hajr nafaqat ayriliq, balki ichki visolga sabab bo'luvchi hodisadir.

Natijada baytda quyidagi fikr ustuvor bo'ladi: yor kirmadi degan da'vo befoyda, chunki u jonning o'zida bor – hatto so'zning harfiy shaklida ham. Bu esa Navoiyning ramziy tafakkuri, harflar orqali tuyg'u ifodalash mahorati va ishqqa sadoqatini chuqur anglatadi.

Keying misolda shoir o'zining ko'ngli va chehrasi ustida qanday ruhiy kurash kechayotganini kitobat san'ati orqali betakror badiiy timsollar bilan tasvirlaydi:

Nildin xolu alif yuz uzra to naqsh aylading,

Dog' kuydurmak ishim bo'lmish, alif kesmak fanim⁴.

Bu baytda shoir, avvalo, oshiqning yuzida hijron azobidan paydo bo'lgan izlarni, ya'ni ajin va chandiqlarni ko'z oldimizga keltiradi. Yor hajrida to'lg'ongan oshiqning yuziga, go'yo nil rangli xol va alif shaklidagi tik chiziqlar naqsh solingandek bo'lgan. Bu naqshlar – ishq sababli yongan yurakning tashqi ko'rinishdagi ifodasi, g'am dardidan yuzda paydo bo'lgan belgilardir. Shuning uchun shoir “dog' kuydurmak ishim bo'lmish” deya – bu alifdek chiziqlarni, bu g'am izlarini yo'qotishga harakat qilishini, ularni dildan ketkazishni istashini bildiradi. Bu yo'qotish esa oddiy emas – bu “fan”, ya'ni hayotiy mashg'ulot, muhabbat yo'lida ado etiladigan mushkul amaldir.

Biroq baytni yana boshqacha talqin qilish ham mumkin. Unda oshiq emas, ma'shuqa markazga chiqariladi. Yor go'yo biror ranj yoki xafalikdan qoshlarini chimirib, yuzida alif shaklidagi burmalar hosil qilgan. Bu esa go'yo uning yuzida hosil bo'lgan jiddiylik yoki g'am izidir. Shoir o'zini bu holatning sababchisi deb biladi: u ma'shuqani ranjitgan, uni kulgu va xushnudlikdan ayirgan. Endi esa “alif kesmak fanim” – degani, uning g'amli chehrasini yo'qotish, qoshidagi o'sha chiziqlarni ochish, ya'ni yuziga yana kulgu olib kirish bu oshiqning chin yurakdan ado etayotgan maqsadi, umri davomida o'rgangan san'atidir.

Shunday qilib, bayt ikki xil ma'noga ega:

1. Hijron azobidan oshiqning yuzida paydo bo'lgan izlar, chandiqlar va ularni yo'qotishga intilishi.

2. Ma'shuqaning xafaligini, qoshidagi “alif”dek chiziqlarni yo'qotishga, unga quvonch, mamnuniyat baxsh etishga intilishi.

Bu bayt faqat tashqi holatni emas, balki ruhiy kurash, g'am va muhabbat o'rtasidagi ziddiyat, insoniy tuyg'ular orqali go'zallikni anglash istagini ifoda etadi.

Alif harfi asosida qurilgan ramziy timsollar so'z zaminiga singdirilgan yurak sadosidir. Har bir chiziq, har bir nuqta, har bir harf g'am va ishqning jilvasi sifatida g'azal ichra jonlanadi. Alif – sadoqatning sadosi, hijronning soyasi, ma'shuqaning jilvasida yashiringan ilohiy ishoratdir. Navoiy kalomida esa bu harf oddiy belgigina emas, balki haroratli qalb, hushyor ko'ngil va nozik did timsolidir. Faqat shu bir necha bayt misolida ham ko'rinadiki, harf badiiyatga aylangan onda, sukut tilga kiradi, ko'z so'zlaydi va kalom bexabar dillarni uyg'otadi

Alisher Navoiy ijodida harfiy san'atlar nafaqat badiiy-estetik mahoratning namunasi, balki chuqur falsafiy va ramziy mazmunga ega bo'lgan murakkab hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Harflar timsolida ifoda etilgan tushunchalar Navoiy tafakkurining tasavvufiy ildizlari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ular orqali shoir ilohiy haqiqatga eltuvchi ramzlar tizimini yaratgan. Ayniqsa, harflarning shakli va semantik xususiyatlarini poetik obrazga

⁴ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. Учинчи том. – Тошкент: Фан, 1988, – Б. 316.

aylantirishdagi uslubiy yondashuvlar Navoiyda o'ziga xos badiiy maktab shakllanganini ko'rsatadi.

Harfiy san'atlar orqali shakllangan timsollar tafakkur, ruhiyat va ma'rifat birligining badiiy ifodasidir. Bu jarayonda har bir harf an'anaviy semantik yukdan tashqari, muayyan falsafiy-ma'naviy mazmun kasb etadi. Shuning uchun ham bu san'at turini faqat poetik bezak emas, balki ramziy-ma'rifiy tizim sifatida o'rganish lozim. Navoiy harfni sukunatdagi so'z, so'zni esa voqe'likdagi haqiqat sifatida talqin etganidek, uning harfiy poetikasi ham ruhiy yetuklik, badiiy tafakkur va mutafakkirona nigoh mahsulidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. 1-ж. – Тошкент: Фан, 1978. – 416 б.
2. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. 2-ж. – Тошкент: Фан, 1979. – 448 б.
3. Алишер Навоийнинг мероси ва унинг жаҳоншумул аҳамияти. Илмий-назарий анжуман маърузалари тезислари. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 54.
4. Амонова З. Ҳуруфийлик ва XIV-XIX асрлар ўзбек мумтоз адабиёти. – Бухоро, 2012.
5. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 158 б.
6. Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 344 б.
7. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон МЭ, 2008. – 426 б.
8. Жумабоева Ж. Ўзбек шеърятининг шаклланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1991. – 144 б.
9. Зуннунов А., Ҳотамов Н. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 416 б.
10. Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. – Тошкент: Фан, 1965. – 130 б.
11. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 168 б.
12. Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1993. – 374 б.
13. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар Шамсиев П., Иброҳимов С. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 782 б.
14. Раҳмонов В. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 200 б.
15. Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Т.: Ўзбекистон, 1970. – 495б.